

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

6  
2023



- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

*Elektron nashr. 424 sahifa, 30-iyun, 2023-yil.*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori  
Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari  
Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori  
Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori  
Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

## Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,  
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli  
qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Sanoat korxonalarida energiyadan foydalanish samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlari .....	6
<b>Buzrukxonov Sardorxon Sarvarxon o'g'li</b> , mustaqil izlanuvchi	
Klasterlarni rivojlantirishda fermer xo'jaliklarining strategik boshqaruvi .....	11
<b>Karimova Nilufar</b> , tayanch doktorant	
Application of Information and Communication Technology to Promote Economic Development of Tourism Services in Uzbekistan .....	16
<b>Peng Xinge</b> , PhD Researcher	
O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan samarali foydalanishning asosiy yo'nalishlari.....	21
<b>Xotamov Ibodulla Sadullayevich</b> , i.f.n., professor, <b>Najmiddinov Yakhyo Fazliddin o'g'li</b> , kafedra assistenti	
Suv ta'minot korxonalarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobi tizimida hisob yuritishning xususiyatlari.....	28
<b>Saidakbarov Xusniddin Abdisolomovich</b> , PhD, katta o'qituvchi	
O'zbekiston ichki oziq-ovqat tovarlari bozorini to'ldirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	31
<b>Azlarova Munira Muhammad Amin qizi</b> , tadqiqotchi	
Assessing the Implementation of Sustainable Practices in Higher Education Institutions to Drive the Transition towards a Green Economy: A Management Perspective .....	40
<b>Kuzikulova Dilfuza</b>	
Qualitative functional development in industrial production.....	49
<b>Ziyayeva Mukhtasar Mansurdjanovna</b> , TSUE, DSc, assistant professor	
Temir yo'l transportini mahalliyashtirishni moliyalashtirish mexanizmning hozirgi holati.....	54
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchi	
Enhancing Education Management for Green Development in Engineering Programs: Strategies, Challenges, and Outcomes.....	61
<b>Eshbayev Oybek</b> , Department of English Language	
Exploring the Role of Effective Management Practices in Achieving a Sustainable Green Economy .....	68
<b>Rozikov Ravshan</b> , Department of English Language	
Enhancing Vocational Competence of Future Economists through English Language Lessons in the Context of the Green Economy.....	76
<b>Kurbanova Nigina</b> , Department of English Language	
Empirical test of regional economic innovation and development along the Belt and Road .....	85
<b>Kalonov Mukhiddin Bahritdinovich</b> , professor	
<b>Shao Junling</b> , PhD student, researcher	
Analysis of the Impact of Cross border Investment and International Economic Integration.....	90
<b>Zhao shenghan</b>	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishda bank moliya texnologiyalarining ahamiyati.....	96
<b>Abduraximova Dilora Karimovna</b> , PhD	
Rivojlangan mamlakatlarda bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasidan samarali foydalanish yo'nalishlari.....	101
<b>Xasanxonova Nodira Isametdinovna</b> , PhD	
Biznes inkubator orqali kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini shakllantirishda "yashil logistika" tamoyillaridan foydalanish.....	107
<b>Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich</b> , kafedra assistenti	
Innovatsion faoliyatning asosi – intellektual salohiyat .....	112
<b>Kaxorova Anora Nusratovna</b> , kafedra assistenti	
Ijro hokimiyati organlari faoliyatini baholash mezonlari tushunchasi va turlari .....	118
<b>Qahramon Usmanovich Umidullayev</b> , yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Temir yo'l transportida mahalliyashtirishni moliyalashtirishning huquqiy asoslari.....	124
<b>Xamrayev Djamshid Panjiyevich</b> , mustaqil tadqiqotchisi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha moliyaviy hisobot: tayyorlash va avtomatlashtirish .....	129
<b>Tulayev Mirzakul Salamovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'llari .....	133
<b>Sh. B. Babayev</b> , dotsent; <b>M. R. Qulmetov</b> , dotsent	
Sug'urta kompaniyalari to'lov qobiliyatini kengaytirish yo'nalishlari .....	138
<b>G'aniyev Shahriddin Vohidovich</b> , professor, i. f. d. (DSc), <b>Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich</b> , i. f. f. d. (PhD)	



Повышении роли цифровой трансформации банков в современном этапе развития экономики .....	144
<b>Жиянова Наргиза Эсанбоена</b> , к.э.н., проф., <b>Азимжонова Малика Шавкат қизи</b> , специалист первой категории	
To‘qimachilik korxonalarida tejamkor ishlab chiqarishni tashkil etishda mehnat resurslari va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samaradorligi .....	150
<b>Yaxuyayeva Inobat Karimovna</b> , dotsent, PhD	
Liquidity and recent changes of government securities market in the United States, the United Kingdom and Japan.....	154
<b>Kholikov Khamidulla Vaydulla ugli</b>	
“История экономических учений” как основная дисциплина в подготовке конкурентоспособных кадров экономистов .....	160
<b>Хакимов Назар Хакимович</b> , доктор философских наук, профессор	
The importance of strategic management and strategic leadership .....	166
<b>Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o‘g‘li</b>	
Exploring the Role of Higher Education in Fostering Green Economy Transition: A Systematic Analysis of Curriculum Integration and Skill Development.....	170
<b>Xasanova Zarina</b> , Department of English Language	
Inson kapitalini joriy etish tizimi va xodimlar daromadi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tahlili.....	178
<b>M. O. Hamroqulov</b> , katta o‘qituvchi	
Yetuk mutaxassis tayyorlash – kelajak uchun sarmoya.....	185
<b>Farhod Bagibekovich Xalimbetov</b>	
Analysis of new established and liquidated enterprises as a basis for jobs (On the example of Samarkand region) .....	188
<b>Saidov Nurali Rakhimovich</b>	
Basing and forecasting the priorities of introducing innovative medical services in Khorezm region.....	193
<b>S. M. Rakhimova</b>	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров .....	197
<b>Джурабаев Отабек Джурабаевич</b> , доцент	
Soliq to‘g‘risidagi qonunlarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikka tortishning huquqiy asoslari ....	204
<b>Hakimov Feruz Xurshid o‘g‘li</b> , talaba	
Hayot sug‘urtasining rivojlanishi va uning ijtimoiy hayotdagi o‘rni .....	207
<b>Baratova Dinora Alisherovna</b> , katta o‘qituvchisi	
Edge Computing texnologiyalari .....	213
<b>Qulmatova S.</b> , PhD, katta o‘qituvchi; <b>Karimov Botir</b> , katta o‘qituvchi	
Aksiyadorlik kapitalida davlat ulushini qisqartirish va xususiylashtirish holati .....	218
<b>Mamatov Bahromjon Shavkatovich</b> , PhD, dotsent	
Xususiy maktablarning ijobiy imijini shakllantirishning nazariy jihatlarini.....	223
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b> , katta o‘qituvchi	
Tomorqa xo‘jaliklarida oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish hajmining prognoz ko‘rsatkichlari .....	228
<b>Saydullayeva Fotima Jozilovna</b> , assistent	
O‘zbekiston sug‘urta bozori rivojlanishining o‘ziga xos xususiyati.....	235
<b>Xasanov Xayrulla Nasrullayevich</b>	
O‘zbekiston yoshlarida volontyorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy mexanizmlari: jahon va mahalliy tajriba .....	241
<b>Qudratov Anvarmirzo Murodillayevich</b> , siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)	
Культурологический аспект преподавания русскоязычной литературы Казахстана в ВУЗе .....	247
<b>Оспан Айзада Бейсенқызы</b> , докторант 2 курса	
Tijorat banklarida kreditlash riskini boshqarish holati tahlili.....	251
<b>Mirzoyev Feruz Mamurjonovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiyalashning zamonaviy holati va tendensiyalari.....	259
<b>Abdualim Abdujabbor o‘g‘li Abdurazzoqov</b> , mustaqil tadqiqotch	
Significance and prospects of using economic-mathematical models in analysis of our country’s economic growth .....	267
<b>Rasulov Jamshid Shokir o‘g‘li</b>	
Bank daromadlilik ko‘rsatkichlariga makroiqtisodiy omillar ta’siri.....	274
<b>Madraimov Xabibulla Madaminovich</b> , assistent o‘qituvchi	

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning ilmiy konsepsiyalari .....	282
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b> , i.f.n., dotsent	
Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirishning makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlash .....	288
<b>Ergashova Nargiza Boboxonovna</b> , talaba	
Budjet-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishning nazariy yondashuvlari .....	296
<b>Hakimjon Hakimov</b> , tadqiqotchi	
Innovatsion-brokerlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni ahamiyatini oshirish istiqbollari .....	301
<b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b> , dotsent	
O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirishda ta'lim xizmatlari bozorining ahamiyati .....	306
<b>Babadjanova Malika Ruzimovna</b> , assistent o'qituvchi	
O'zbekiston sug'urtalovchilarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda qayta sug'urtaning roli .....	312
<b>Kamilov Baxramjon Umardjonovich</b>	
Shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasi hamisha muhim.....	317
<b>Bekdavlat Aliyev</b> , professor, falsafa fanlari doktori	
Jismoniy shaxslar daromadini soliqqa tortishning zamonaviy tendensiyalari .....	321
<b>O. T. Nurmatov</b> , PhD	
Milliy mahsulotning mazmuni, tarkibiy qismlari va harakat shakllarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari.....	327
<b>Abdullayev Suyun Artiqovich</b> , O'zbekiston jahon tillari universiteti prorektori	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari.....	335
<b>Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich</b> , mustaqil izlanuvchi	
Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatda ichki nazorat va auditning xususiyatlari.....	346
<b>Saidaxmedova Aida Mirzayevna</b> , katta o'qituvchi	
Yangi O'zbekistonda yog'-moy korxonalari personalini boshqarishni takomillashtirish.....	352
<b>D. A. Azlarova</b> , PhD	
The Intersection of Sustainability and Economic Development: Balancing Environment and Business Needs .....	360
<b>Kholikova Rukhsora Sanjarovna</b> , PhD, <b>Izzatulloev Bakhodir Ubaydullo ugli</b> , student	
Davlat-xususiy sheriklikni tashkil etishning huquqiy-institutsional mexanizmlari .....	364
<b>Zuhra Abdikarimova</b> , tayanch doktorant	
Zamonaviy portfel nazariyasi asosida samarali portfelni shakllantirish.....	370
<b>Sindarov Fazliddin Qahramonovich</b> , kafedra assistenti	
Iste'molchilarning qandolat mahsulotlariga bo'lgan talablarini raqamli platformalar orqali tadqiq qilish yo'llari .....	376
<b>To'ychiyeva Vasila Faxriddin qizi</b> , assistent	
Investitsiya muhiti va faoliyati natijalarini baholash uslublari.....	381
<b>B. K. Tuxliyev</b> , professor	
Sanoat korxonalarida resurslar salohiyatini tizimli tahlil qilish – korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta'minlash omili sifatida.....	386
<b>Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi</b> , PhD	
Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida).....	391
<b>Aminboy Sa'dullayev</b> , i.f.n, dotsent, <b>Dilshod Vaisov</b> , magistr, <b>Farhod Egamberganov</b> , magistr	
Xizmatlar ko'rsatish korxonalarini soliqqa tortish amaliyoti va uni takomillashtirish .....	397
<b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b> , tadqiqotchi	
Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar: yutuqlar, kamchiliklar va yechimlari.....	403
<b>Muxitdinova Kamola Alisherovna</b> , PhD	
Directions of attracting foreign capital and specific characteristics of the eurobond transaction.....	407
<b>Gafurov Olimjon</b> , teacher, <b>Kholmuminov Humoyun</b> , teacher, <b>Abueva Sevinch</b> , student,	
Формирование международных систем бухгалтерского учета в условиях глобализации экономики.....	411
<b>Ф. Т. Абдувахидов</b> , доцент, <b>А. Ю. Нурмухаммедов</b> , доцент	
Qishloqda turizmni tashkil etishning mamlakatimiz taraqqiyotiga ta'siri .....	417
<b>Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna</b> , dotsent	
Public debt, poverty and economic growth of Uzbekistan .....	420
<b>Mirzamakhmudov Marufjan Mahamadsharif ugli</b>	



# BIZNES INKUBATOR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SHAKLLANTIRISHDA “YASHIL LOGISTIKA” TAMOYILLARIDAN FOYDALANISH



**Narzullayev Shodiyor Eshpulatovich**  
TDIU, “Biznes boshqaruvi va logistika” kafedrasida assistenti

**Annotatsiya:** ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasida logistika masalalarini hal etish, atrof-muhitga bo‘ladigan zararli omillar ta‘sirini kamaytirishda yashil logistika mezonlarini ishlab chiqish va rivojlantirishning iqtisodiy yondashuvlari keltirilgan. Xususan, tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilar biznes inkubatorlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish yo‘llari, yangi transport yo‘laklarini yaratish, yuklarni mul‘timodal tashishni tashkil etishning iqtisodiy afzalliklari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** yuk, tashish, logistika, xalqaro, xarid, buyurtma, transport, davlat, yetkazish, eksport, import, mahsulot, ekologiya, zararni minimallashtirish.

**Аннотация:** в данной статье представлены экономические подходы к решению вопросов логистики в Республике Узбекистан, разработка и разработка критериев зеленой логистики для снижения воздействия вредных факторов на окружающую среду. В частности, выделены пути эффективного использования возможностей бизнес-инкубаторов предпринимателями и производителями, создание новых транспортных коридоров, экономические преимущества организации мультимодальных перевозок грузов.

**Ключевые слова:** Груз, перевозка, логистика, международная, закупка, заказ, перевозка, государство, доставка, экспорт, импорт, продукт, экология, минимизация ущерба.

**Abstract:** this article presents the economic approaches to solving logistics issues in the Republic of Uzbekistan, developing and developing green logistics criteria to reduce the impact of harmful factors on the environment. In particular, the ways of effective use of opportunities of business incubators by entrepreneurs and manufacturers, creation of new transport corridors, economic advantages of organizing multimodal transport of goods are highlighted.

**Key words:** cargo, transportation, logistics, international, purchase, order, transportation, state, delivery, export, import, product, ecology, damage minimization.

## KIRISH

Ko‘p jihatdan, mamlakatlarning eksport rivojini asosan transport-logistika xizmatlarisiz tasavvur etish qiyin. Yurtimizda xorijiy davlatlar bilan muntazam olib borilayotgan hamkorlik munosabatlarining eng avvalida ham eksportga urg‘u berilyaptiki, natijada O‘zbekiston qisqa vaqt ichida tashqi bozorga xom ashyo yetkazib beruvchidan, tayyor mahsulot eksport qiluvchi mamlakatga aylanmoqda.

Logistika masalalarini hal etish, yangi transport yo‘laklarini yaratish bunga keng yo‘l ochadi. Bu borada vazifalar ham belgilangan. Xususan, davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev, o‘tgan 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2023-yilda tayyor mahsulotlar eksportini qo‘shimcha 4 milliard dollarga oshirish asosiy maqsadlarimizdan biri ekanini ta‘kidladi <sup>[1]</sup>. Joriy yilda Prezident farmoni bilan qabul qilingan Davlat dasturida esa 2026-yilga qadar mamlakatimiz eksport hajmini 30 milliard dollarga yetkazishdek katta maqsadlar qo‘yilgan <sup>[2]</sup>.

Buning uchun logistika xizmatlarini nafaqat rivojlantirish, balki zamon talabiga moslashtirib borish ham taqazo etiladi. Ya‘ni yuqorida ta‘kidlanganidek, odamlarda tezkor, ekologik va arzon mahsulot hamda xizmatlarga ehtiyoj oshib bormoqda. Logistika masalalari ham bundan mustasno emas. Tadbirkor va ishlab chiqaruvchilar esa ana shu talabga moslashmoqda.



Hatto logistika xizmatlarida “Yashillik”ka e’tibor kuchayishi ortidan, bu masala biznes majburiyatiga aylanib bormoqda.

Xo’sh, bugungi kunda odamlar intilayotgan “Yashil” logistika o’zi nima va uni qo’llashning eng maqbul amaliyotlari nimalarda ko’zga tashlanadi? Manbalarga ko’ra, “Yashil” logistika ijtimoiy rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillarini hisobga olgan holda tovarlarni barqaror ravishda ishlab chiqarish va tarqatishni anglatadi. U logistika faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini o’lchash va minimallashtirishga qaratilgan barcha harakatlarni tavsiflaydi [3].

Sodda qilib aytganda esa, “Yashil” logistika – bu logistika jarayonlarini raqamlashtirish orqali iste’molchilarga mahsulotlarni eng minimal xarajatlar evaziga, kelishilgan muddatda yetkazib berish hamda bu bosqichda atrof-muhitga bo’ladigan zararli ta’sirni kamaytirish mezonidir. Ya’ni bu yerda buyurtmani ham tez, ham arzon, ham ekologiyaga zarar keltirmagan holda yetkazib berish nazarda tutiladi. U chiqindilarni boshqarish, utilitatsiya qilish, qadoqlash, qayta ishlash, energiya iste’molini kamaytirish va hokazolar bilan shug’ullanadigan ta’minot zanjirini o’z ichiga oladi. Bularning bariga logistika xizmatlarini zamonaviylashtirish va raqamlashtirish evaziga erishish mumkin.

Bunda logistika operatsiyalarining bari raqamlashtirish hisobiga osonlik bilan amalga oshiriladi. Raqamlashtirish, o’z-o’zidan qog’oz ko’rinishidagi xizmatlardan butkul voz kechish va buning natijasida, vaqt, ortiqcha xarajatlarni tejashga olib keladi [4]. Qarabsizki, energiya sarfi ham kamayib, chiqindilar chiqishi sezilarli qisqaradi. To’g’ri tanlangan texnologiya va ta’minot zanjiri iste’molchi talablariga yechim bo’lish barobarida, yetkazib berish va brend imijini oshirish xarajatlarini ham kamaytirishi mumkin.

“Yashil” logistika 1980-yillarning o’rtalarida paydo bo’lgani haqida ma’lumotlar bor. U ish paytida atrof-muhitga yetkazilgan zararni minimallashtirish uchun ilg’or texnologiyalar va uskunalardan foydalanadigan logistika tizimi va yondashuvlari ko’rinishida yuzaga kelgan.

Tasavvur qiling, tadbirkor qaysidir viloyatda qishloq xo’jaligi mahsulotini yetishtirish bilan shug’ullanadi. Xaridorlari shaharlardagi bozorlar, supermarketlar, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarini yoki xorij maydoni bo’lishi mumkin. Toza mahsulot oxirgi xaridorga yetib borguniga qadar bir necha kungina vaqt bo’ladi.

Shu vaqt ichida hosilni yig’ib olish, qadoqlash, transport vositasiga yuklab, xaridorga yetkazish kerak. Mahsulot sifatli qadoqlansa-yu, logistika tizimi yaxshi yo’lga qo’yilmagan yoki transportda saqlash uchun zarur sharoitlar bo’lmasa, xaridor o’zi kutgan mahsulotni olmaydi. Mahsulotning sifati buzilishidan ishlab chiqaruvchi ham katta ziyon ko’radi. Yaroqsiz mahsulotlar esa chiqindiga aylanib, tabiatga zarar yetkazadi. Bularning bari o’zaro bog’liq va shunday holatlarning oldini olish uchun ham “Yashil” logistikani rivojlantirish zarur.

Hozir aksariyat davlatlarning talabi ham shu – “Yashil” logistikani rivojlantirishdan iborat. Tizimni raqamlashtirish yo’li milliy “Yashil” logistikamizni rivojlantirishda ham mos keladi. Qolaversa, mamlakatimizda barcha sohalarda jadal raqamlashtirish jarayonlari ketayotgan hozirgi sharoitda bu zaruriy ehtiyoj hamdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Yashil logistika sohasini rivojlantirishda nazariy, uslubiy-amaliy, ekologik tizimni minimallashtirish uchun ijtimoiy-iqtisodiy jarayon barqarorligini ta’minlaydigan hamda yuk tashish tizimi masalalarini integratsiyalash va mintaqalararo aloqalarni rivojlanishiga hissa qo’shgan quyidagi xorijiy va mahalliy olimlarning ishlarida tadqiq qilingan: Xorijiy olimlardan, K. Aleksandrova, T. Alesinskaya, A. Albekova, B. Anikin, S. Bryukina, O. Belova, A. Brom, V. Vershina, M. Guriyeva, T. Zaxarova, G. Karpova, O. Malikova, A. Salovyanov, M. Zalmanova hamda mahalliy olimlardan, Q. Dadaboyev, F. Xujayev, A. Kucharov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan.

## MUAMMONING BAYONI VA UNI YECHISH USULI

Logistika tizimiga mamlakat iqtisodiyotining qon tomiri, deya ta’rif berilishi bejiz emas. Boisi, samarador logistika ichki bozorda tayyor mahsulot va xom ashyo harakatini optimallashtirish orqali tovar va xizmatlarning xaridorlar uchun qulay sharoit va arzon narxlarda yetkazib berilishini ta’minlaydi, bozordagi raqobatni rag’batlantiradi. Tashqi bozorda esa mamlakatning iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiradi va jahon iqtisodiyotiga integratsiya jarayonini tezlashtiradi.

O’zbekiston geografik joylashuvi jihatidan O’rta Osiyoning markazidagi davlatlardan biri. Demak, bizda boshqa mamlakatlar uchun “Xab” vazifasini bajarish imkoniyati katta. Ammo geografik nuqtayi nazardan, dengizga chiqish imkoniyatlarimiz cheklangan. Bu esa mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda ko’plab qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.



Shunday sharoitda, biz mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishimizga to'g'ri keladi. Chunki yurtimizda tadbirkorlarga keng imkoniyatlar berilayotgani hisobiga eksportyor korxonalar soni yildan yilga ortib, o'zbek brendi ostidagi mahsulotlar yangi bozorlar, hatto Yevropa davlatlari savdo rastalariga kirib boryapti.

O'zbekiston uchun Yevropa bozorlari 2021-yildan boshlab ochildi. Mamlakatimizning GSP+ tizimiga a'zo bo'lgani ham katta voqeelikdir. Bu tizim O'zbekistondan eksport qilinadigan 6 ming turdan ortiq mahsulotlarni Yevropa Ittifoqidagi 28 ta davlatga olib kirish eshiklarini ochdi. Bu juda katta imkoniyat va unga moslashish, talablarni tahlil qilib, standartlarga javob berish ustida ishlar olib borilyapti. Mahalliy eksportyorlarga logistika masalalarida kengroq imkoniyatlar yaratish maqsadida yurtimizdagi havo va temir yo'llari yangi loyihalar asosida qo'shimcha qulayliklar yaratishga intilmoqda.

Logistika rivoji bevosita davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalarining o'sishiga borib taqaladi. Geografik va iqtisodiy jihatdan oladigan bo'lsak, O'zbekiston Markaziy Osiyoda transport oqimlarining yangi arxitekturasini shakllantirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda mamlakatimiz rahbari Markaziy Osiyoda "Yashil" transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish tashabbusini faol ilgari surmoqda. Buni o'zaro hamkorlikda boshlangan katta loyihalar, xalqaro maydondagi chiqishlar xronologiyasida ham kuzatish mumkin.

Bu yo'llarning zarurligi shundaki, ular transport tashuvlarini ancha yengillashtiradi. Birgina, Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston yo'nalishining amalga oshirilishi Xitoydan Janubi–Sharqiy Yevropagacha bo'lgan masofani 900 kilometrga qisqartiradi, bu 7–8 kunga teng degani. Mazkur yo'l yangi transport koridorining muhim bo'g'ini ga aylanadi va u orqali O'zbekiston Xitoyning nihoyatda katta bo'lgan savdo maydoniga kirib boradi.

Qolaversa, "Sharq–G'arb" loyihasi doirasida O'rta Yer dengizi portlariga qiyinchiliklarsiz chiqiladi. Vaqt va sarf-xarajatlarning qisqarishi eksport ko'lamini oshiradi. Mahsulotlar belgilangan manzilga o'z sifatini yo'qotmagan holda, belgilangan muddatlarda yetib boradi. Buyurtmalarni tezkor va sifatini saqlagan holda yetkazish uchun esa zamonaviy transport infratuzilmasini yaratish zarur.

Mintaqamizdagi tranzit yo'laklarining raqobatbardoshligini oshirish, biznes uchun eng qulay tariflarni joriy etish ham shular jumlasidan. Bularning hisobiga oxirgi yillarda mamlakatimizdagi yuk va yo'lovchi tashish xizmatlarida o'sish kuzatilayotganini ko'rishimiz mumkin. Masalan, o'tgan yili barcha transport turlarida yuk tashish 6,5 foizga, yo'lovchi tashish esa 2,9 foizga oshgan. Tranzit yuk tashish hajmi esa 10 million tonnadan oshib, xalqaro yuk tashishning umumiy hajmi 49 million tonnaga yetdi. Demak, minimal xarajat qilib sifatli va ekologik toza mahsulotni optimal variantlarni tanlab istemolchiga vaktida yetkazib berish, bu dunyo bozorlariga chiqishning talablaridan biridir.

Ekologik talablarga javob beradigan logistikada uchta asosiy mezon, ya'ni iqtisodiyot, ijtimoiy hayot va ekologiya barqarorligi nazarda tutiladi. Bu mezon mahsulotlarni yetkazib berishda ularning tabiatga salbiy ta'siri bo'lmasligi barobarida, iqtisodiy tejankorligi ham zaruriy qiymatga ega. Hatto mahsulotlarni qadoqlashda joyni tejashni inobatga olish, foydalaniladigan xom ashyoni qayta ishlash mumkinligiga e'tibor qaratish zarur. Yashil logistika jarayoni tizimlarini tahlil qilishning miqdoriy usullari ham rivojlanmoqda va doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Umuman, bunda barcha jarayon sifatli, ekologik toza mahsulot yetkazib berishga qaratiladi. Raqamli texnologiya va zamonaviy qurilmalar esa ushbu jarayonlarning sifat hamda tezkorligini ta'minlaydi.

## HISOBLASH NATIJALARI VA TAHLILI

Jahon iste'mol bozori yil sayin kengayib boryapti: talabga yarasha taklif ham yuqori. Iste'molchilar bir mahsulotning bir necha o'nlab turlarini tanlash imkoniyatiga ega. Ammo masalaning boshqa tomoni ham bor, insoniyat so'nggi yillarda atrof-muhit tozaligi, bu orqali o'z salomatligi haqida jiddiy qayg'ura boshladi. Natijada, dunyo bozorida ekologik toza mahsulotlarga talab ortib, odamlar atrof-muhitga kamroq zarar yetkazadigan ishlab chiqaruvchilar, sotuvchi va brendlarni afzal ko'rmoqda.


Masalan, Markaziy Osiyo–Fors ko'rfazi transmintaqaviy yo'nalishidan samarali foydalanish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlar tashabbusini olaylik. O'zaro kelishuv asosida birinchidan, Janubiy Osiyoga chiqadigan Transafg'on yo'lagini tezroq shakllantirish, shuningdek, Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston avtomobil va temir yo'l magistrallarini qurishni jadallashtirish ko'zda tutilgan. Ikkinchi yirik loyiha Termiz–Mozori Sharif–Kobul–Peshovar temir yo'lining qurilishidir.

Hududlarimizni o'zaro bog'laydigan bu yo'l "Yashil" logistikaning asosiy elementi hisoblanadi. Qurilish loyihasi allaqachon qo'llab-quvvatlangan bo'lib, hozirda keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Ishlab chiqaruvchi va buyurtmachi o'rtasidagi tovarlar havo, temiryo'l, dengiz yoki avtomobil yo'li transportlari orqali bir manzildan ikkinchi manzilga yetkaziladi. Davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari ham asrlar davomida shu tarzda amalga oshirib kelinmoqda.



Quyidagi 1-rasmdan ko'rinib turibdiki yashil logistika tizimlari qanchalik bir-biriga bog'liq va ko'pincha amalda ularni ajratish juda qiyin.



1 - r a s m: Yashil logistika jarayoni

Ushbu rasmdan ko'rinib turibdiki, yashil logistika jarayonidan olingan xavf qiymatlarini ham aniqlash va ruxsat etilgan maksimal qiymatlar bilan taqqoslagandan so'ng, xavfni boshqarish strategiyasi ishlab chiqiladi va shu asosda xavfni oldini olish, kamaytirish choralarini ko'riladi. Xavfni minimallashtirish, dasturlash vazifalariga muvofiq eng kam xarajat va yo'qotish bilan eng yaxshi natijaning eng katta ehtimolini ta'minlaydigan maqbul yechimni muqobil yechimlari to'plamidan tanlash imkoniyati mavjud bo'lganda, iqtisodiy xavfni miqdoriy baholashning roli sezilarli darajada oshadi.

Quyidagi sabablarga ko'ra yashil logistika tizimlari samaradorligini oshirish uchun miqdoriy usullarni ham qo'llash mumkin:

- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish yoki tarqatish bilan shug'ullanadigan deyarli barcha firmalar tomonidan logistika konsepsiyasidan foydalanish;
- korxonalarni rejalashtirish va boshqarish tizimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlashga imkon beradigan axborot texnologiyalari sohasidagi jadal o'sish;
- tayyor mahsulotni ishlab chiqarish yoki tarqatish bilan shug'ullanadigan deyarli barcha firmalar tomonidan logistika konsepsiyasidan foydalanish;
- korxonalarni rejalashtirish va boshqarish tizimida katta hajmdagi ma'lumotlarni tezda qayta ishlashga imkon beradigan axborot texnologiyalari sohasidagi jadal o'sish;
- korxonadan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotishda boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish jarayonida axborot resurslari va texnologiyalaridan to'liq foydalanish zarurligini anglash.
- tashqi muhitning noaniqligi sharoitida logistika tizimlarini loyihalash ko'nikmalarini o'zlashtirish;
- savdo va sanoat korxonalarini tomonidan amalga oshiriladigan logistika funksiyalari va operatsiyalarini optimallashtirish usullari va modellarini o'rganish;
- logistikada moliyaviy xatarlarni boshqarish samaradorligini miqdoriy tahlil qilishning nazariy va uslubiy asoslari to'g'risida yaxlit tasavvurga ega bo'lish;
- investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning turli manbalarini jalb qilishni hisobga olgan holda savdo va sanoat korxonalarini investitsion rivojlantirish strategiyasini rejalashtirishdir.

Ishlab chiqarish va eksport ko'lamining ortishi logistika xizmatlariga bo'lgan talabni ham oshiradi. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, yurtimizda eksportyor korxonalar soni besh yilda 4 ming 500 tadan 7 ming 200 taga ko'paygan. Eksport qilinayotgan mahsulotlar turlari esa 1 ming 500 tadan qariyb 3 mingtaga oshib, mamlakatlar geografiyasi 164 taga yetdi. Mutaxassislar O'zbekistonni Markaziy Osiyodagi asosiy davlatlardan biri sifatida eksport imkoniyatlarini yanada yuqoriroq baholamoqda.

Hozirgi vaqtda logistika sohasida moliyaviy va investitsiya resurslarini boshqarish sohasidagi qarorlarni optimallashtirishga qaratilgan ma'lum bir taqchilliklar mavjud. Ko'p hollarda bu yagona bo'lmagan yechimga ega bo'lgan vazifadir <sup>[5, 6, 7]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

"Yashil" logistika haqida gap borganida, uni transport vositalari tashuvidan holi tasavvur etish noto'g'ri bo'ladi. Chunki, hatto, onlayn buyurtmalar ham mijozlarga ma'lum transport turi orqali yetkazib beriladi. Shunchaki, mijozlar tezkor, kamjarj va albatta, sifatli logistikaga ko'proq talabgardir. Buyurtmalarni qabul qilish va boshqa jarayonlarning elektron amalga oshirilishi esa ana shu sifatning yanada oshishiga xizmat qiladi.

O'zbekistonda transport sohasi yalpi ichki mahsulotning 6,4 foizini, jami investitsiyalar hajmining 7,4 foizini, jami xizmatlar bozorining 29,5 foizini tashkil qiladi. Mutaxassislar 2030-yilga borib yurtimizning tranzit salohiyati 4,4 baravarga oshib, 6,04 milliard tonnagacha yetishini taxmin qilmoqda. Shu bilan birga, transport sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan ulushi 46,7 milliard dollargacha oshishi haqida taxminlar bor.

Xalqaro tashkilotlardan birining hisobotiga ko'ra, hatto, iste'molchilarning 57 foizi tabiat tozaligiga hissa qo'shish maqsadida onlayn xaridlarni tanlamoqda. Logistika, ya'ni, yetkazib berish xizmatlari iqtisodiyotning asosiy negizlaridan hisoblanadi. Odatda, bu vazifani transport vositalari bajaradi.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida temir yo'l infratuzilmasini elektrlashtirish darajasini 60 foizga yetkazish va avtomobil yo'llari tarmog'ini jadal rivojlantirish, tashqi savdo uchun transport tizimida "Yashil yo'laklar" va tranzit imkoniyatlarini kengaytirish vazifalari ham qo'yilgan.

Bu mamlakatimizning jahon bozorida roli mustahkamlab, ishonchli hamkorlar sonini ko'paytirish, "Yashil" logistikani rivojlantirish, eksport ko'lamini yanada oshirishga keng yo'l ochadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev, 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi.
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 28.01.2022-yil. //www.lex.uz
3. Александрова, К. "Зеленая" логистика позволила сэкономить 60 млн евро [Электронный ресурс]/К. Александрова. – Режим доступа: [http://www.lenoblin-form.ru/apps/news/2011/11/08/zelenayalogistika-pozvolila-sekonomit-okolo-mln-e/?cat\\_ids=3](http://www.lenoblin-form.ru/apps/news/2011/11/08/zelenayalogistika-pozvolila-sekonomit-okolo-mln-e/?cat_ids=3) (дата обращения: 10.04.2016).
4. Алесинская, Т.В. Основы логистики. Функциональные области логистического управления [Текст] / Т.В. Алесинская. – Таганрог: Издво ТТИУФУ, 2010.– Ч. 3.
5. Альбеков, А.У. Проблемы логистики торговли средствами производства [Текст] / А. У. Альбеков. – Ростов н/Д, 1998. – 231 с.
6. Аникин, Б.А. Коммерческая логистика [Текст] / Б. А. Аникин, А. П. Тяпухин. – М.: Проспект, 2010.
7. Sh. Narzullayev. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida biznes inkubatorlarning innovatsion salohiyatini boshqarish. Iqtisodiyot va ta'lim / 2021-yil, 5-son. -322 b.

#### Internet saytlar:

1. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. [www.gazeta.uz](http://www.gazeta.uz)
3. [www.Yangi O'zbekiston](http://www.Yangi-O'zbekiston)
4. <http://www.economy.gov.ru>.

# Yashil **IQTISODIYOT** **TARAQQIYOT** va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 6**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027



**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi 26-uy.